

**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jsru>**CONDITIONS FOR THE OCCURRENCE OF INTERNAL INSTABILITY IN SYRIA****Shakhzod N. Akhmatov***Intern teacher**Department of History, Culture, Politics and Economy of Turkic Peoples
Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: “Middle East”, Middle East
Sommand, Egypt, Syria, Israel, Lebanon,
Jordan, Iraq, Saudi Arabia, Kuwait, Bahrain
and Qatar, “Arab Spring”, “People’s Spring”,
“Prague Spring”.

Received: 08.10.23**Accepted:** 10.10.23**Published:** 12.10.23

Abstract: Not only in modern times, but also since ancient times, relations between the countries of the Middle East region have played an important role. The center of the world civilization also corresponds to this region. The first manifestations of statehood also belong to this region. The Middle East is often called the “crossroads of the world”. This term was given because it is considered the region of origin of three religions: Christianity, Islam and Judaism, which are practiced by half of the world's population. Therefore, the Middle East is the gateway to India, the Far East, Sub-Saharan Africa and Southeast Europe. This is a sufficient reason for the region to become the center of the conflict of interests of major countries in terms of geopolitics, and today it remains a strategically, economically, politically, culturally and religiously important region.

SURIYADA ICHKI BEQARORLIKNING YUZAGA KELISHI SHART-SHAROITLARI**Shaxzod N. Axmatov***stajor-o'qituvchi**Turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodi kafedrasi
O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: “Middle East”, Middle
East Sommand, Misr, Suriya, Isroil, Livan,
Iordaniya, Iroq, Saudiya Arabistoni, Quvayt,
Baxrayn va Qatar, “Arab bahori”, Xalqlar
bahori”, “Praga bahori”.

Annotatsiya: Nafaqat zamonaviy davrda balki, qadimdan Yaqin Sharq mintaqasi davlatlar o'rtasidagi aloqalar muhim o'rin tutib kelgan. Dunyo sivilizasiyasining boshlanish o'chog'i ham aynan shu mintaqaga to'g'ri keladi. Ilk davlatchilik qo'rinishlari ham shu mintaqaga tegishlidir. Yaqin Sharq ko'p hollarda “jahonning chorrahasi” deb nomlanmoqda. Bu atama dunyo

aholisining yarmi sig'inadigan uchta din: Xristian, Islom va Yahudiy dinlarining kelib chiqish mintaqasi hisoblangani uchun berilgan. Shuning Yaqin Sharq Hindiston, Uzoq Sharq, Sub-Saxara Afrika va Janubiy-sharqiy Yevropaga kirish darvozasi hisoblanadi. Bu esa mintaqaning geosiyosiy jihatdan yirik davlatlar manfaatlarini to'qnashuvi markaziga aylanishi uchun yetarli asos hisoblanadi va bugungi kunda ham strategik, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy jihatdan muxim mintaqaga bo'lib qolmoqda.

УСЛОВИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ВНУТРЕННЕЙ НЕСТАБИЛЬНОСТИ В СИРИИ

Шахзод Н. Ахматов

Преподаватель-стажер

*Кафедра истории, культуры, политики и экономики тюркских народов
Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Ближний Восток», Ближневосточный Соманд, Египет, Сирия, Израиль, Ливан, Иордания, Ирак, Саудовская Аравия, Кувейт, Бахрейн и Катар, «Арабская весна», «Народная весна», «Пражская весна»

Аннотация: Не только в новое время, но и с древних времен отношения между странами ближневосточного региона играли важную роль. Этому региону также соответствует центр мировой цивилизации. К этому региону относятся и первые проявления государственности. Ближний Восток часто называют «перекрестком мира». Этот термин был дан потому, что он считается регионом зарождения трех религий: христианства, ислама и иудаизма, которые исповедует половина населения мира. Таким образом, Ближний Восток является воротами в Индию, на Дальний Восток, в страны Африки к югу от Сахары и Юго-Восточную Европу. Это достаточная причина для того, чтобы регион стал центром конфликта интересов крупнейших стран с точки зрения геополитики и сегодня остается стратегически, экономически, политически, культурно и религиозно важным регионом.

KIRISH

“Yaqin Sharq” atamasi etimologiyasini qo‘rib chiqadigan bo‘lsak, Yaqin Sharq Janubiy-g‘arbiy Osiyo va Shimoliy-sharqiy Afrikagacha yo-yilgan hudud bo‘lib, aniq chegarasi o‘rnatilmagan. Shuning uchun bu mintaqaga chegarasi turli davrda, turli davlatlar tomonidan turlicha ta’lqin qilinadi. Ba’zan u “Near East” ga sinonim tarzda ishlatiladi. Yaqin Sharq ingliz tilida “Middle East” atamasi 1900-yillar Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan qirollikda mashhur bo‘lgan. Slavyan tillarida, xususan, rus tilida Blijniy Vostok, bolgar tilida Blizkaya Iztok, polyak

tilida Blizki Wscod, nemis tilida Naher Osten, ammo Fransuz tilida “O‘rta Sharq” ma’nosini beruvchi Moyen Orient, ispan tilida Medio Oriente, italian tilidan Medio Oriente sifatida qo‘llaniladi.

ASOSIY QISM

Middle East atamasi 1850-yillarda Britaniya Hindiston Ofisida vujudga keldi va amerikalik dengiz strategisi Alfred Mexen tomonidan uni birinchi bor o‘zining 1902-yil sentyabrda Britaniyaning “National Review”ida chop etilgan “Fors ko‘rfazi va xalqaro munosabatlar” nomli maqolasida qo‘llanilgan.

Biroq ommaviy ravishda Yevropada qo‘llanilishi 1930-yillar oxirida Britaniya Qoxirada joylashgan Yaqin Sharq Boshqaruvi (Middle East Sommand)ni mintaqada o‘z harbiy qo‘shinlarini boshqarish uchun o‘rnatishi bilan bog‘liq. Shu vaqtdan boshlab “Middle East” atamasi Yevropa va AQShda keng ilmiy va rasmiy doiralarda ishlatila boshlandi.

Shu bilan birga “Middle East” atamasi birinchi bor AQSh hukumati tomonidan rasmiy ravishda Suvaysh kanali inqirozi bilan bog‘liq 1957-yilgi Eyzenxauer doktrinasida ishlatila boshlandi. O‘sha vaqtdagi Davlat kotibi Jon Foster Dullas Yaqin Sharqqa quyidagicha ta’rif beradi: “bu hudud g‘arbda Liviya va sharqda Pokiston, shimolda Suriya va Iroq, janubda Arab yarim orolini, plyus Sudan va Efiopiyani ham o‘z ichiga oladi”.

1958-yil AQSh Davlat departamenti “Near East” va “Middle East”ni bir birini to‘ldiradigan, o‘rniga ishlatilsa bo‘ladigan mintaqasi sifatida e’tirof etib, u hududga quyidagi davlatlarni kiritgan: Misr, Suriya, Isroil, Livan, Iordaniya, Iroq, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Baxrayn va Qatar. Bugungi kunda AQSh Markaziy Razvedka Agentligining 2008-yil 15-iyunida keltirilgan ma’lumotiga ko‘ra Yaqin Sharqqa quyidagi davlatlar tegishli:

Fors platformasidan Eron; Anatoliyadan Turkiya; O‘rta Yer dengizi mintaqasidan Kipr; Mesopotamiyadan Iroq; Arab yarim orolidan Quvayt, Baxrayn, Ummon, Qatar, Saudiya Arabistoni, Birlashgan arab amirliklari, Yaman; Livant tekistligidan Isroil, Iordaniya, Livan, Suriya; Shimoliy Afrikadan Misr; Muxtor hudud Falastin.

Tarixda va bugungi kunda Yaqin Sharq mintaqasi o‘zining qulay geostrategik joylashuvi, geoiqtisodiy salohiyati orqali jahonning yetakchi davlatlari e’tiborini jalb etib kelgan. Mintaqasi davlatlarining va tashqi kuchlarning o‘zaro ta’siri Yaqin Sharqda bashorat qilish murakkab bo‘lgan siyosiy vaziyatning shakllanishiga zamin yaratadi. “Arab bahori”ning yuz berishi ham arab davlatlari ichki va tashqi siyosatida muayyan ta’sirga ega ega bo‘ldi. Buning natijasida amerikalik taniqli tadqiqotchi Z.Bjezinskiy “Buyuk shaxmat doskasi” e’tirof etganidek, mintaqasi davlatlarining ayrimlari «faol geostrategik ishtirokchilar» va boshqalari «geosiyosiy markazlar» aylandilar deyish mumkin.

“Arab bahori” atamasi fanga 2011-yilning boshida amerikalik Mark Linch va Djozef Massad tomonidan kiritilgan. “Arab bahori” atamasi ostida ular ba’zi Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika

davlatlarida tuzim o'zgarishiga olib kelgan namoyishlarni ta'riflashadi. Amerikalik mutaxassislar bu atamani mafkuraviy deb tan olishgan. "Arab bahori" 1848-yildagi "Xalqlar bahori" va 1968-yildagi "Praga bahori" atamasiga qiyos sifatida o'ylab topilgan. Bunday tasnif bu inqiloblarni liberal-demokratik tuzumlarining o'rnatilishi bilan yakun topadi deb baholangan.

Arab dunyosidagi bunday holat siyosatshunoslikda amerika "demokratik tranzit"ning qayta tiklanishiga olib kelgan. Bu konsepsiya 1970-yillarda amerikalik mutaxassis Denkvort Rostouga tegishli, unga ko'ra avtoritar tuzumlar ma'lum vaqtdan keyin qulashi va liberal-demokratik tuzumlar o'rnatilishi olib keladi. Bu yo'lining tarafdorlari (C. Xantington) "demokratik tranzitning" tarixda 3 to'liqini bo'lgan deb ta'kidlashadi:

- Monarxiya tuzumlaridan o'rta demokratik tuzumlarga o'tish (XIX asr o'rtalari)
- O'rta demokratik tuzumlardan liberal-demokratik tuzumlarga o'tish (XX asr o'rtalari)
- Sobiq Ittifoq davlatlari va Markaziy Yevropa davlatlaridagi sotsialistik tuzumlarining qulashi va liberal-demokratik islohatlar (1980-yillar oxiri)

"Arab bahori" Charlz Krautxammerning so'zlariga qaraganda 2005-yildayoq demokratlashuvning 4-to'liqini bo'lishi kerak edi. Bunday kayfiyat 2012-yilning yozigacha amerika mutaxassislari orasida saqlanib turdi, "Arab bahori" to'g'ri yo'l ekanligiga shubxa paydo bo'lgunga qadar.

Oq uy ham rasmiy bayonotigaga ko'ra AQSh qarashlar tarafdori va mintaqadagi o'zgarishlarni demokratik o'zgarishlar sifatidan baholagan. 2011-yilning 19-mayida prezident Obama bu holat haqida nutq so'zladi. Uning asosi shundaki Vashington shu vaqtgacha hato yo'lni tanlab betaraflik maqomini saqlagan. Shu vaqtda esa Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlarida demokratik xarakatlar kengaynoqda. Vashington, Obamaning so'zlariga qaraganda demokratik harakatlar ittifoqdoshi bo'lmog'i kerak.

Mutaxassislar orasida Arab dunyosidagi bir vaqtda ro'y bergan chiqishlarning sabablari borasida yagona yondoshuv mavjud emas. Bunga turtki sifatida balkim 2008-2009-yillardagi dunyo iqtisodiy inqirozi va oziq-ovqat mollariga narxlarning oshishi bo'lishi mumkin. Ammo buning sabablari ancha chuqurroq. Ko'pgina Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlarida oxirgi 30-yil mobaynida hokimyat o'zgarmagan. Bu-yillar mobaynida hokimyatda o'nashib olgan namoyondalardan norozi bo'lgan yangi siyosatshunoslar va fuqarolar etilib chiqdi. Bunday kayfiyatlar g'arb dunyoviy tuzumlariga qarshi bo'lgan radikal islamlarchilar guruhiga qo'l keldi.

Bunga dastlabki shart-sharoit sifatida G'arbiy Afrikadagi beqarorlik sabab bo'ldi. 2010-yil kuzida Ko't Diviuarda sharoit keskinlashdi va oxirgi on-yillikda prezidentlikka saylov bo'ldi. Markaziy saylov komissiyasi Respublikachilar birlashuvi rahbari Allasan Uattarni g'olib deb e'lon qildi. Ammo 4 dekabr 2010-yili Ko't Diviuarning Konstitusion kengashi saylov natijalarini rad etdi va hokimyatni Prezident Loran Gbagboda qo'lishini qo'llab quvatladi. Siyosiy inqiroz fuqarolar

urushiga olib keldi bu esa o'z navbatida Fransiyaning aralashuviga turtki bo'ldi. 2011-yilning 1 aprelida BMT tinchlikparvar kuchlari va fransuz qismlari birgalikda harbiy operatsiyani boshlashdi va natijada prezident L. Gbagbo ag'darildi.

Shu vaqtning o'zida G'arbiy Saxarada g'alayonlar boshlandi. Bu Ispaniyaning sobiq mustamlakasi 1979-yilda Marokash tomonidan bosib olinga edi. BMT bu hududga qo'shin kiritish va 1976-yilda tuzilgan Saxara Arab demokratik respublikasini tan olishdan bosh tortdi. 2010-yilning 9 oktabrida bu hududda g'alayonlar natijasida El-Ayun, Keyp Bodjur, Daxle va Samre shaharlarida mustahkam lagerlar yuzaga keldi. Namoyishchilar aholiga ijtimoiy yordam dasturi kengaytirish, inson huquqlariga rioya etish va G'arbiy Saxarani mustaqil deb tan olishni talab qildilar. 2010-yilning noyabrida lagerlar Marokash politsiyasi tomonidan yo'q qilindi. Shu bilan bilan birga Marokash qiroli Muhammad VI G'arbiy Saxaradagi ko'pchilik hokimlarni o'zgartirdi.

Ko't Diviuar va G'arbiy Saxaradagi g'alayonlar bir qancha uzoq muddatli jarayonlarni tezlashtirdi (shuning uchun ham amerikalik siyosatshunos Noam Xomski bu g'alayonlarni "Arab bahori" boshlanishi deb hisoblagan). Beqaror bo'lgan Saxel zonasida Al- Qoida kuchli pozitsiyaga ega bo'lib, u yerdan radikal islomchilar Tunis, Liviya va Misrga kirib kela boshladi. Shimoliy Afrika davlatlaridagi beqarorlik va bir davlatdagi tuzum qulashi boshqa davlatda g'alayonlarning boshlanishiga ya'ni "Domino ta'siri" ga olib keldi. Keyinchalik Arab duynosidagi holat 4 asosiy senariy bo'yicha rivojlandi.

Birinchi variant - *tinch, ko'p sonli namoyishlar natijasida hokimyatning o'zgarishi*. Bu yo'lning misoli sifatida Tunisdagi voqealar bo'lishi mumkin. G'alayonlar boshlanishiga 2010-yilning 17 dekabrda Sayid- Buzide shahridagi sotuvchi Muhammad Buazizining o'zini o'zi yoqishi turtki bo'ldi. 2010-yilning 27 dekabrda Tunis kasaba uyushmalari norozilik namoyishini boshlashdi. 2011-yilning 13 yanvarida poytaxtdagi g'alayonlar natijasida Tunis prezidenti Zin al- Abidin Ben Ali (1987-2011 yy.) iste'foga chiqdi. Vaqtinchalik hukumat boshlig'i qilib Tunis parlamenti raisi Fuat Mebeza e'lon qilindi; haqiqiy hukumat vaqtinchalik harbiylar qo'liga o'tdi. 2011-yil 12- dekabrda Milliy kengash tomonidan o'tkazilgan Prezident saylovlarida sobiq huquqshunosh Manesef Marzuki go'lib chiqdi.

Tunisdagi hodisalar Misrda 1981-yildan hokimyat tepasidagi harbiy oligarxiya tuzumi boshlig'i Husni Muborak va unning raqibi "Musulmon Birodarlari" kuchlari o'rtasida siyosiy inqirozni yuzaga keltirdi. Bu davlatda g'alayonlar 2011-yil 17 yanvaridan student Xalid Sayid Misr parlamenti binosi oldida o'zini yoqib yuborishidan boshlandi. 2011-yil 16-19 yanvarida oppozisiya boshlig'i M.el-Baradei X.Muborak hokimiyati Ben Ali hokimiyati singari ag'darilishi mumkin deb ta'kidladi. 2011-yil 25 yanvaridan Qohira markaziy maydoni Taxrirda muddatsiz norozilik namoyishlari boshlandi. G'alayonlar davlatning boshqa shaharlariga: Suvaysh, Luksor, Mine, Shakir, El Mansur ham tarqaldi.

Davlat kuch ishlatishga harakat qildi. Bir vaqtning o'zida X.Muborak g'alayonchilar bilan kelishuvga urindi. Xususan, 1981-yilda bekor qilingan Vitse prezident lavozimi qayta tiklandi, Muborakning o'zi 2011-yil kuzgi prezident saylovlarida qatnashishdan oshkora vos kechdi. Bu harakatlar samarasiz tugadi: 2011-yil 11 fevralda X. Muborak iste'foga chiqdi.

2011-yildagi inqilob ushbu harakatga katta yordam berdi: "Musulmon birodarlar" nafaqat siyosiy yopiqlikdan chiqa oldilar, balki inqilobning g'olib bo'lishi aniq bo'lib qolganda, hukumatga qarshi qarshilik harakatlariga qo'shildilar. Shuningdek yangi parlamentda katta o'rin egallashi mumkin bo'lgan siyosiy partiya "Al-Hurriyat va Al-Adal" ("Ozodlik va adolat") partiyasini tuzdilar. Shu bilan birga tashkilotning mafkuraviy g'oyalari ham ancha yumshoqlashib, radikalizmdan uzoqlashib, demokratik qadriyatlarga aylana boshladi.

2012-yil mamlakat prezidentligi uchun o'tkazilgan saylovlarda "Musulmon birodarlari" nomzodi Muhammad Mursi 51,73% ovoz bilan g'alaba qozonadi. Biroq 2012-yil noyabrida M.Mursi jiddiy oppozisiya qarshiligiga duch keldi. M.Mursi shuningdek umumxalq referendumiga yangi konstitutsiya loyihasini ham taklif etdi. Oppozisiya tomonidan mazkur tashabbus "islomik fitna" sifatida qabul qilindi. Natijada Misrdagi turli diniy kamchiliklar va oppozisiya vakillaridan iborat minglab namoyishchilar 2012-yil noyabrida namoyishlar o'tkazishdi.

2013-yil aprelda Misr jamiyatida keng qamrovli ikkiga bo'linish xavfi vujudga kelib qoldi. Oppozisiya tarafdorlari M.Mursi va "Musulmon birodarlari"ni hokmiyatni mutloqlashtirishda ayblagan bo'lsa, prezident tarafdorlari aksincha oppozisiyani mamlakatda beqarorliknikeltirib chiqarishda ayblay boshladi. Mamlakatdagi yoqil'gi resurslarining yetishmasligi, elektr energiyasidagi yetishmovchiliklar M.Mursi hukumatining iqtisodiyotni boshqara olmasligi natijasi sifatida qabul qilindi.

2013-yil 3 iyulda M.Mursi prezidentlik lavozimidan chetlashtirilib, namoyishni bostirishda qurolli kuchlarni qo'llaganlikda ayblanib qamoqqa olindi. Natijada Misrning islomiy-boshqaruv shaklidagi hukumatiga qarshi millionlab norozilarning namoyishlari oqibatida ro'y bergan so'nggi harbiy davlat to'ntarishi dunyoviy (sekulyar) konstitusionalizmni saqlab qolish imkonini berdi.

Yamanda shunga o'xshash vaziyat ko'proq vaqtga cho'zildi. 1994-yildan davlat boshida president Ali Abdalla Solih turar edi. 2011-yil 22 yanvarda Yamanda hukumatga qarshi namoyishlar boshlandi, bunga javoban davlatda favqulotda holat e'lon qilindi. 2011-yil mayidagi kelishuvga urinishlar samarasiz tugadi. Vaziyatni Saudiya Arabistoni vositachiligi o'zgartirdi. 2011-yil 23 noyabrida A.A.Solih xavfsizlik kafolati evaziga Ar-Riyodda Vitse prezident Abd Rabbo Mansur al-Xodiga vakolatlarini berish to'g'risida farmonga imzo chekdi. 2012-yil 9 yanvarida Yaman Muvaqqat hukumati istefoga chiqqan prezidentga vaqtinchalik daxlsizlik huquqini berdi. 2012-yil 21 fevral president saylovlarida Vitse president al-Xodi g'olib chiqdi.

Ikkinchi variant - *hukumat va qarshi kuchlar o'rtasida kelishuvga erishish orqali bajariladi*. Bunday jarayonlarning klassik rivojiga Marokash misol bo'la oladi. 2011-yil 20 fevralida davlatning yirik shaharlari- Rabot va Kasblankada qirol Muhammad VI ning hokimyatini qisqartirish uchun namoyishlar bolib o'tdi. Bunday holatda davlat qarshi kuchlar bilan muzokaralarni afzal ko'rdi. 2011-yilning 9 martida Muhammad VI islohotlarning boshlanishi haqida e'lon qildi. Davlat asosiy qonunining yangi namunasiga ko'ra, parlament saylovlarida g'olib chiqqan partiya hukumat tuzish huquqiga ega bo'ldi, sud hokimyatining mustaqilligi kengaytirildi va Barbar tili davlat tili maqomiga ega bo'ldi. Qirolning taklifi 2011-yil 1 iyulda bo'lib o'tgan referendumda ma'qullandi. Bu yon bosishlar natijasida qirol qarshi namoyishlarni qo'lga oldi.

Shunga o'xshash yo'l Ummonda ham qo'llanildi. 2011-yil yanvaridan butun davlat bo'ylab hayotning hamma sohasida o'zgarishlar shiori ostida chiqichlar bo'lib o'tdi. Sulton Kobus Ben Said yon bosishga qaror qildi. 2011-yil 13 martida Qonun chiqaruvchi kengash qunun chiqarish tashabbusi va tartibga solish huquqini qo'lga kiritdi. Bir vaqtning o'zida Sulton davlat asosiy qonuniga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha qo'mita tuzdi.

Quvaytda vaziyat chigalroq kechdi. G'alayonlar qo'zg'atuvchisi sifatida davlatning fuqarolik huquqiga ega bo'lmagan arab aholisi Bedunlar chiqishlar o'tqazishdi. 2011-yilning fevralidan davlatda bu etnik guruhning fuqarolik va ijtimoiy huquq berish talibi ostida muntazam namoyishlari bo'lib o'tdi. Keyinchalik bularga siyosiy talablar ham qo'shildi: ular Bosh Vazir Shayx Nasr al-Muhammad as Sabohning lavozimidan olinishi, shuningdek, parlament huquqining kengaytirilishini talab qilishdi. 2011-yilning 28 noyabrida Quvayt amiri hukumat iste'fosini qabul qildi va parlamentni tarqatib yuborishga rozilik berdi. Bir vaqtning o'zida ijtimoiy islohatlar amalga oshirildi.

Uchinchi variant- *namoyishlarni kuch bilan bostirishni ko'zda tutar edi*. Bu yo'l birinchi navbatda Saudiya Arabistonida amalga oshirildi. Bu davlatda g'alayonlar 2011-yilning 21 yanvarida Samt shahrida o'zini yoqishga urinishdan keyin boshlandi. 2011-yil 23 fevralida Qirol Abdulla ijtimoiy islohotlarni e'lon qildi. Bir vaqtning o'zida politsiya namoyishchilarni tarqatish uchun kuch ishlatdi. Eng yirik kuch ishlatish holatlari El Kaft va Shaqiy viloyatlardagi namoyishchilarni tarqatish bo'ldi.

Saudiya Arabistonidagi namoyishlar AQShni qattiq tashvishga soldi. O'tgan 20-yil ichida bu davlatda ikki marta jiddiy g'alayonlar bo'lib o'tdi. Birichi marta 1995-yilda "kenja shaxzodalar g'alyoni" vaqtida bo'lgan. Ikkinchisi 2003-2004-yillardagi yirik terrorchilik harakatlari mobaynida. Bu ikki holatda ham Oq uyda Saudiya Arabiston hududi yaxlitligi uchun qayg'urishdi. Hatto B.Obama ma'muriyati Ar- Riyoddagi qattiq harakatlarni qoramadi.

Kuch ishlatish holati Iordaniyada yumshoq ko'rinishga ega bo'ldi. Bu davlatda g'alayonlar 2011-yil 22 yanvaridan boshlandi. 2011-yil 1 fevralida qirol Abdulla II Ma'ruf al-Baxtni yangi Bosh Vazir etib tayinladi. Bu o'zgarishlar oppozitsiyaga ma'qul kelmadi: bunga qarshi talaba va ishsiz

ziyolilar Amman markazida palatkali qarorgohlar qurib olishdi. Bunga javoban 2011-yil 24 martda qirol tarafdorlari otryadi namoyishchilarni tarqatib yubordi. Shunga qaramay qirol Abdulla yon berishga majbur bo'ldi: 2011-yilning 17 oktabrida Ma'ruf al-Baxt hukumati iste'foga yuborildi.

To'rtinchi variant - *g'alayonlarini xorijiy davlatlar aralushuvi yordamida bostirish*. 2011-yil fevral oyida Bahraynda shiyalar chiqishlari bo'lib o'tdi. Namoyishchilar ularning siyosiy huquqlarini tan olinishini, Bosh Vazir Halif ibn Salmon al-Halifning iste'fosini va monarxiyaning tugatilishini talab qilishdi. Bu chiqishlar Eronning ta'siri doirasi kuchayishi deb baholagan Ar Riyod havfsiradi. 2011-yilning 14 martida Saudiya Arabistoni Bahraynga 1000 ta harbiy hizmatchi jo'natdi. Ar-Riyod namunasiga BAA ham qoshildi va 500 ta politsiya hizmatchisini jalb qildi. 2015-yilning 15 martidan Bahraynda 3 oy muddatga favqulodta vaziyat holati kiritildi. Arab davlatlari ligasi Bahayrn harakatlarini qo'llab quvvatladi.

Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlaridagi inqilob natijalari kelib chiqishiga ko'ra inqilobdan oldingi dunyoviy yumshoq diktaturaga yaqinroq bolib, amerika modelidagi liberal demokratik tuzumga nisbatan ancha uzoq edi. Bu kelishuvda ko'pgina ijobiy tomonlari ham bor edi. Misrdan tashqari boshqa hech qaysi davlatda hokimyat tepasiga radikal islomchilar hukumati kelmadi., buning natijasida qisman stabillik saqlab qolindi. Ammo, Yaqin Sharqdagi holat buyuk davlatlar o'rtasida raqobatni kuchaytirdi.

Bundan tashqari beshnchi variant sifatida – *tashqi kuchlar tomonidan ichki ishlar aralashishi va mamlakatlarda qurolli konfliktlarning davom etishini keltirish* mumkin.

Liviyada "arab bahori" natijasida namoyishchilar va hukumat o'rtasida keng qamrovli kurashlar avj oldi. Bunga tashqi kuchlarning oppozisiyani qo'llab-quvvatlashlari mamlakatda fuqarolar urushini kelitirib chiqarishiga olib keldi. 2011-yil 15 fevralda Beng'oz shahrida Muammar Kaddafi tuzumini ag'darish shiori ostida katta namoyishlar bo'lib o'tdi. 2011-yil 24 fevralda namoyishlar Kirenaika hududiga ham yo-yildi. 2011-yil fevral oyi so'nggida sobiq adliya vaziri Mustafo Muhammad Abdul Jalil rahbarligida Milliy muvaqqat Kengashi tuzildi.

Tashqi kuchlarning aralashuvi tashabusskorlari Britaniya va Fransiya bo'lib, 2011-yil 23 fevralda Fransiya prezidenti N.Sarkozi M.Kaddafi rejimi qarshi snanksiya kiritishni taklif etdi. Yevropa Ittifoqi rahbarlarining 2011-yil 24-25 fevraldagi norasmiy uchrashuvida (unda NATOning sobiq Bosh Kotibi Andres Fog Rasmussen him itirok etgan) Fransiya mudofaa vaziri Alen Jyuppe Liviyaga nisbatan M.Kaddafi tomonidan namoyishchilarni bambordimon qilishning oldini olish maqsadida "uchishsiz zona"ni kiritishni taklif etdi. 2011-yil 28 fevralda Britaniya Bosh Vaziri D.Kameron Liviyadv "uchishsiz zona" yaratishni taklif etdi. 2011-yil 1 martda AQSh Senati fransuz-ingliz taklifini qo'llab quvvatlovchi rezalyusiyani maqulladi. 2011-yil 17 martda BMT Xavfsizlik Kengashi №1973 sonli rezolyusiya qabul qilib, uning mohiyati Liviya ustidan "uchishchiz zona"ni yaratishni maqulladi. Rossiya va Xitoy qarshi ovoz berishmadi. 2011-yil 19 martdan Britaniya,

Fransiya, AQSh, Kanada va Norvegiya Liviya xavo keegliklarida nazoratni boshlashdi. Ular Liviyaning harbiy xavo kuchlari va radar tizimlarini ishdan chiqarishdi. 2011-yil 31 martdan NATOning "Freedom Falcon" operatsiyasi boshlandi. Germaniya Liviyaga qurolli aralashishni qo'llab-quvvatlamadi. Rossiya ham keskin tanqid bilan chiqdi va 2011-yil 29 martdagi London konferensiyasiga taklif etilmadi. Mamlakatdagi qurolli kuchlar to'qnashuvi natijasida 2011-yil 20 oktyabrda M.Kaddafi o'ldirildi va 2011-yil 31 oktyabrda NATO harbiy operatsiyasi rasman tugallandi.

Umuman olganda Liviyadagi holat bo'yicha quyidagi xulosa chiqarish mumkin:

Birinchidan, Liviyadagi qurolli mojora Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada Britaniya va Fransiyaning siyosiy-harbiy faolligi o'sganligini ko'rsatdi. 1956-yilgi Suvayish inqirozidan so'ng ikki davlat bunlay katta qo'shma harbiy operatsiya amalga oshirishmagan edi. London va Parij ushbu operatsiyaning AQSh homiyligida amalga oshirishdi.

Ikkinchidan, Liviya urushi Fransiyaning O'rta Yer dengizi ittifoqining yemirilishiga olib keldi. Urush boshlanish vaqtida sobiq prezident N.Sarkozi O'rta Yer dengizi ittifoqining muhim ekanligini isbotlashga harakat qildi. Biroq NATOning ustivor mavqeyi unga to'sqinlik qildi.

Uchinchidan, Liviya operatsiyasi Fransiyaning 2009-yildan NATOga qaytishini mustahkamladi.

To'rtinchidan, Liviya operatsiyasi Germaniyaning istiqboldagi siyosatigi nisbatan aniqlik kiritib olishni talabini qo'ydi. Germaniya NATO operatsiyasida ishtirok etishdan bosh tortdi va uni Yevroittifoq doirasida ko'rishga ham harakat qilmadi va o'zining mudofaa sohasidagi tashabbuslari mustaqil ekanligini isbotlashga urindi.

Suriyadagi inqiroz 2011-yil yanvardan boshlandi. 2011-yil 18 martda Dera shag'rida boshlangan g'alayonlar o'zida B.Asad tizimiga qarshi bo'lgan turli kuchlarni birlashtirdi. B.Asad yon berishga rozi bo'ldi biroq bu natijasiz tugadi. 2011-yil 25 aprelda Suriyaning Dera shahrida hukumat qo'shinlari harbiy operatsiyani amalga oshirishdi. 2011-yil 29 iyulda polkovnik Riyad al-Asad rahbarligida ofiserlar Ozod Suriya Armiyasini tashkil etishdi. 2011-yil 25 aprelda Fransiya Yevropa Ittifoqi va BMTni Liviyadagi singari B.Asadga qarshi javob choralarini qo'llashni taklif etdi. 2011-yil 18 avgustda Britaniya, Fransiya va Germaniya B.Asadni istefoga ketishiga chaqirdi. AQSh qo'llab-quvvatlashi ostida Parij va London B.Asadga qarshi rezolyusiya tayyorlashdi, lekin BMT Xavfsizlik Kengashining 2011-yil 4 oktyabrdagi yig'ilishida unga Rossiya va Xitoy tomonidan veto qo'llanildi. Natijada Suriyada qurolli nizoning oldini olishga qaratilgan urinishlarga qaramasdan, mamlakatda turli kuchlar ta'sirida keng ko'lamli urush o'chog'i paydo bo'ldi, diniy terrorizm ildiz otib, uning hududida prato davlat tuzish erishdi. Bugungi kunda Suriyadagi qurolli nizo ishtirokchilarini to'rt guruhga bo'lish mumkin: 1. Rasmiy Damashq va B.Asad boshchiligidagi

hukumat qo‘shinlari; 2. Mo‘‘tadil oppozisiya sifatida e‘tirof etilayotgan “Ozod Suriya Armiyasi”; 3. Diniy terroristik tashkilotlari – ISHID va “Jabhat an-Nusra”; 4. Kurd peshmerglari.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Yaqin Sharq mintaqasi bugungi kunda o‘zining jahondagi muhim geostrategik ahamiyatidan tashqari nizolarga boy hudud sifatidagi maqomiga ega bo‘lmoqda. Tabiiyki davlatlar o‘tasidagi ichki mintaqaviy raqobat tashqi kuchlar ta’siri ostida kechmoqda va o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. “Arab bahori” ham buning yorqin namunasi bo‘lib, uning natijasida Yaqin Sharq mintaqasidagi siyosiy tuzumlarda modernizasiya jarayonlari bilan birgalikda, inqirozlar ham sodir bo‘ldi. Shu bois Yaqin Sharqning istiqbolini bashorat qilish murakkab bo‘lib, bu barcha geosiyosiy jarayonlarda faol ishtirok etayotgan tomonlarning o‘zaro manfaatlarini aniq belgilab olishiga bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Near East atamasini ingliz tilidan so‘zma so‘z tarjima qilinganda “Yaqin Sharq” ma’nosini bersa, Middle East atamasi “O‘rta Sharq” ma’nosini anglatadi. Biroq bugungi kunda Middle East atama “Yaqin Sharq” sifatida tarjima qilinmoqda. Near East atamasi siyosiy leksikonda kamroq qo‘llanib, Middle Eastga sinonim sifatida ingliz tilidagi manbalarda qo‘llanilmoqda.
2. http://en.wikipedia.org/wiki/Middle_East
3. The World Factbook, United States Central Intelligence Agency (CIA), 15 July 2008. <https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/fields/2001.html>
4. «Faol geostrategik ishtirokchilar» – o‘z chegaralaridan tashkarida hukmronlik qiluvchi yoki mavjud geosiyosiy holatni o‘zgartira olish yo‘lida kobiliyat va milliy irodaga ega bo‘lgan davlatlar kiradi.
5. «Geosiyosiy markazlar» – bu shunday davlatlarki, ularning ahamiyati ularning salohiyati yoki mazmunidan emas, balki ularning joylashishlari va tabiiy jihatdan yuzaga keladigan potensial zaiflik oqibatida geostrategik ishtirokchilarga imkoniyat tug‘dirib beradigan omillar bilan belgilanadi. Ko‘pincha geosiyosiy markazlar o‘zlarining geografik holatlariga bog‘liq bo‘lib, yo muhim mintaqalarga eltuvchi yo‘l ustidan nazorat o‘rnatish, yoinki geostrategik ishtirokchilarga resurslarga ega bo‘lishlarida to‘sqinlik qilish imkoniyati bilan belgilanadi.
6. См.: Lynch M. The Arab Uprising: The Unfinished Revolutions of the New Middle East. – New York: Public Affairs. 2012. – С.304.
7. См. Фененко А. Междержавная конкуренция на Ближнем Востоке: факты и тенденции. // Международные процессы. – Том 12. – №3 (38). – Июль– сентябрь / 2014. –С.34.
8. Sullivan C.J. Riding the Revolutionary Wave: America, The Arab Spring and the Autumn of 1989 // The Washington Review of Turkish and Eurasian Affairs. Rethink Institute.

April 2011. // <http://www.thewashingtonreview.org/articles/riding-the-revolutionary-wave-america-the-arab-spring-and-the-autumn-of-1989.html>

9. Krauthammer Ch. The Arab Spring of 2005 // The Seattle Times. 21 March 2005. // http://seattletimes.com/html/opinion/2002214060_krauthammer21.html

10. Cofman Wittes T. Learning to Live with the Islamist Winter // Foreign Policy. 19 July 2012. // http://www.foreignpolicy.com/articles/2012/07/19/learning_to_live_with_the_islamist_winter

11. Remarks of President Barack Obama by the President on the Middle East and North Africa // State Department. Washington, DC. 19 May 2011. URL: <http://www.whitehouse.gov/the-press-office/2011/05/19/remarks-president-middle-east-and-north-africa%20>

12. Богатуров А.Д., Фененко А.В. Посткризисные тренды в мировой политике // Свободная мысль. – №2. – 2011. – С.119.

13. Яковлев А.И. Региональные аспекты мирового кризиса: страны Арабского Востока: смена модели развития // Вестник Московского университета. Серия 25. Международные отношения и мировая политика. – 2013. – № 4. – С.13.

14. См.: Коновалов И.П., Шубин Г.В. Современная Африка: войны и оружие / Отв. ред. С.В. Мезенцев. – М.: Социально-политическая мысль, 2012. – С.476.

15. James Sater. 'Egypt's Dilemma: Democracy Without Democrats' // <http://static.sdu.dk/mediafiles/3/D/6/%7B3D64DFC7-8160-4183-B721-0F60092202F7%7DJS0113.pdf> – 9 July 2015

16. См. Фененко А. Междержавная конкуренция на Ближнем Востоке: факты и тенденции. // Международные процессы. – Том 12. – №3 (38). – Июль–сентябрь / 2014. – С.34.

17. Бедунлар – Кувайтда фуқаролик мақомига эга бўлмаган аҳоли қатлами // См. Фененко А. Междержавная конкуренция на Ближнем Востоке: факты и тенденции. // Международные процессы. – Том 12. – №3 (38). – Июль–сентябрь / 2014. – С.34.

18. Kuperman Alan J.A. Model Humanitarian Intervention? Reassessing NATO's Libya Campaign // International Security Summer. – 2013. – Vol.38. – No.1. – С.105.

19. Данилов Д.А. Европейский союз в поисках ответа на вызовы арабской весны // Индекс безопасности. – 2013. – Т 18. – № 3–4 (102–103). – С.107.

20. Фененко А. Междержавная конкуренция на Ближнем Востоке: факты и тенденции. // Международные процессы. – Том 12. – №3 (38). – Июль–сентябрь / 2014. – С.34.